

LINGVOPRAGMATIK JIHATDAN MOLİYAVIY TERMINLARNING TARJIMADAGI EKVIVALENTLIGI

Mamanazarova Diyora¹

Annotatsiya. Ushbu maqola moliyaviy terminlarning tarjima jarayonida ekvivalentlikni lingvopragmatik nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan. Moliyaviy matnlar o'ziga xos terminologik va uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularning tarjimasini nafaqat lug'aviy, balki kommunikativ va pragmatik jihatdan ham mos bo'lishi muhimdir. Tadqiqot davomida xalqaro moliyaviy hujjatlar, bank hisobotlari va investitsion shartnomalar misolida lingvopragmatik ekvivalentlik darajasi tahlil qilinadi. Moliyaviy terminlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishida uchraydigan qiyinchiliklar, terminlarning mazmunini to'liq yetkazish uchun qo'llaniladigan strategiyalar hamda pragmatik moslikni saqlash yo'llari yoritiladi. Maqola natijalari moliyaviy matnlarni tarjima qilishda lingvopragmatik yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy terminlar, lingvopragmatik yondashuv, ekvivalentlik, tarjima strategiyalari, pragmatik moslik, kommunikativ funktsiya.

Kirish. Global iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi bilan moliyaviy hujjatlar tarjimasini dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy hisobotlar, bank bitimlari, investitsion shartnomalar singari hujjatlarning mazmunini boshqa tillarga to'g'ri va aniq yetkazish katta mas'uliyat talab qiladi. Moliyaviy terminologiya o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, ularning tarjimasini lug'aviy ekvivalentlik bilan cheklanib qolmasdan, pragmatik jihatdan ham to'liq mos bo'lishi zarur. Tarjima nazariyasida ekvivalentlik tushunchasi bir necha olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, Nida tomonidan kiritilgan "formal" va "dinamik" ekvivalentlik tushunchalari moliyaviy matnlar tarjimasida ham qo'llaniladi. Rasmiy ekvivalentlik terminologik aniq ma'noni saqlashga qaratilgan bo'lsa, dinamik ekvivalentlik matnning kommunikativ vazifasini saqlab qolishni ta'minlaydi. Moliyaviy terminlarning tarjimasida bu ikki yondashuvdan samarali foydalanish natijasida, matnning ma'nosi nafaqat lug'aviy, balki pragmatik jihatdan ham to'liq uzatiladi. Moliyaviy terminologiyada ekvivalentlikni ta'minlashda lingvopragmatik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliyaviy hujjatlar, yillik hisobotlar va bank bitimlari tarjimasida faqat lug'aviy ekvivalentni topish kifoya qilmaydi. Tarjimon matnning iqtisodiy mazmunini, huquqiy o'ziga xosliklarini va pragmatik kontekstini ham hisobga olishi zarur. Shu sababli, maqolada moliyaviy terminlarning o'zbek tiliga tarjimasida lingvopragmatik yondashuvning samaradorligi, terminlarning

¹ Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasini o'qituvchisi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

adekvatligi hamda kommunikativ funksiyasining saqlanish darajasi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Moliyaviy terminlarning tarjima jarayonida ekvivalentlik va adekvatlikning lingvopragmatik jihatlari tarjima nazariyasi doirasida keng tadqiq qilingan. Bu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy matnlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning kommunikativ funksiyasi va tarjimada uchraydigan lingvistik qiyinchiliklarni yoritadi. Tarjima nazariyasida ekvivalentlik tushunchasi keng o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Nida o'zining "Toward a Science of Translating" asarida ekvivalentlikni "formal" va "dinamik" ekvivalentlikka ajratadi. Formal ekvivalentlik asl matnning grammatik va semantik tarkibini maksimal darajada saqlashga qaratilgan bo'lsa, dinamik ekvivalentlik matnning kommunikativ ta'sirini saqlashga qaratiladi. Moliyaviy terminlar tarjimasida rasmiy ekvivalentlik ko'pincha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan atamalarni to'g'ri ifodalashda qo'llaniladi. Masalan, "Assets" – "Aktivlar", "Liabilities" – "Majburiyatlar", "Investment" – "Investitsiya" kabi terminlar aniq va to'g'ri aks ettiriladi.

Newmark esa tarjima nazariyasiga "semantic translation" va "communicative translation" tushunchalarini kiritadi. Semantic translation original matnning semantik mazmunini maksimal darajada saqlashni maqsad qilsa, communicative translation o'quvchi uchun tushunarli va aniq bo'lishni ta'minlaydi. Moliyaviy matnlar tarjimasida, ayniqsa, xalqaro hujjatlar va bank hisobotlarida semantic translation usuli keng qo'llaniladi. Reiss va Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan "Skopos nazariyasi" tarjimada matnning kommunikativ maqsadini ustuvor qo'yadi. Ularning fikriga ko'ra, tarjima qilingan matn asl matn bilan faqat lug'aviy jihatdan emas, balki maqsad nuqtai nazaridan ham mos bo'lishi kerak. Moliyaviy hujjatlarda bu yondashuv juda muhim, chunki ularning tarjimasida nafaqat terminologik to'g'ri ekvivalentlar, balki matnning kommunikativ vazifasi ham saqlanishi lozim.

Nord esa tarjima jarayonida funksiional moslikni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. U o'zining "Translating as a Purposeful Activity" asarida tarjimaning asosiy maqsadi asl matnning kommunikativ vazifasini to'liq aks ettirish ekanligini ko'rsatadi. Moliyaviy matnlarning lingvopragmatik jihatlari ham ushbu yondashuv asosida tahlil qilinadi. Masalan, "Balance Sheet" – "Balans hisoboti", "Net Profit" – "Sof foyda" kabi atamalar kommunikativ vazifasini yo'qotmasdan, aniq va tushunarli tarzda tarjima qilinadi. Crystal esa iqtisodiy va moliyaviy matnlar tarjimasida ekvivalentlikni ta'minlash uchun nafaqat lingvistik moslik, balki pragmatik va madaniy moslik ham zarur ekanligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy matnlar tarjimasida lingvopragmatik yondashuv muhim rol o'ynaydi, chunki u terminlarning nafaqat lug'aviy, balki kontekstual ma'nosini ham hisobga oladi. Hatim va Mason tarjimada pragmatik yondashuvni qo'llash orqali matnning asl kommunikativ funksiyasini saqlash mumkinligini ta'kidlaydi. Moliyaviy matnlar esa, o'z navbatida, huquqiy va iqtisodiy tushunchalarni aniq va to'g'ri uzatishni talab qiladi,

bu esa lingvopragmatik moslikni ta'minlashni zarur qiladi. Venuti o'zining "The Translation Studies Reader" asarida tarjimada madaniy kontekstning ahamiyatini ta'kidlaydi. Moliyaviy matnlar tarjimasida ham madaniy tafovutlar katta ahamiyat kasb etadi, chunki iqtisodiy tushunchalar ba'zan turli davlatlarda bir xil terminologiyaga ega bo'lsa ham, ularning talqini farq qilishi mumkin. Yuqoridagi adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy matnlar tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarini saqlash tarjimonlardan yuqori darajadagi lingvistik va pragmatik bilimlarni talab qiladi. Lingvopragmatik yondashuv orqali matnlarning funksional maqsadini saqlash, madaniy kontekstga moslashtirish hamda iqtisodiy tushunchalarni to'g'ri ifodalash mumkin. Ushbu yondashuv moliyaviy hujjatlar tarjimasida yuzaga keladigan noaniqliklarni bartaraf etishda samarali usul hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot moliyaviy terminlarning lingvopragmatik yondashuv asosida tarjima qilinishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Moliyaviy matnlar, jumladan, xalqaro moliyaviy hisobotlar, bank bitimlari, investitsion shartnomalar va audit hujjatlari asosiy tadqiqot materiali sifatida tanlandi. Ushbu matnlar orqali terminlarning tarjimada ekvivalentlik darajasi, kommunikativ funksiyasi va pragmatik mosligi chuqur o'rganildi. Diskurs-tahlil usuli yordamida moliyaviy terminlarning kontekstda qanday ma'noga ega ekani va tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga uchrashi tahlil qilindi. Moliyaviy matnlarda terminlarning huquqiy va iqtisodiy mazmunini to'g'ri ifodalash uchun ularning kontekstual talqinini tushunish zarur. Lingvistik tahlil orqali moliyaviy terminlarning lug'aviy ma'nosi, ularning tarjimada saqlanish darajasi, shuningdek, sinonim va variant shakllari o'rganildi. Bu jarayon davomida moliyaviy hisobotlardagi asosiy terminlar, masalan, "Assets" – "Aktivlar", "Liabilities" – "Majburiyatlar", "Equity" – "Kapital" kabi atamalar qiyosiy tahlil qilindi.

Taqqoslash metodi orqali bir xil mazmundagi moliyaviy matnlarning ingliz, o'zbek va rus tillaridagi tarjimalari o'zaro solishtirildi. Ushbu usul terminologik o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga, shuningdek, pragmatik moslik darajasini baholashga imkon berdi. Pragmatik tahlil usuli esa terminlarning kommunikativ funksiyasini saqlab qolish darajasini o'rganishga qaratildi. Moliyaviy matnlar, asosan, xalqaro muomalalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning noto'g'ri tarjima qilinishi iqtisodiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, pragmatik yondashuv orqali terminlarning ma'no va vazifasini to'g'ri aks ettirish tahlil qilindi. Tahlil jarayonida Jahon Banki (World Bank), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Yevropa Markaziy Banki (ECB) tomonidan nashr etilgan yillik hisobotlar, investitsion shartnomalar hamda xalqaro kredit bitimlari asosiy manba sifatida tanlandi. Ushbu hujjatlar asosida lingvopragmatik yondashuvni amalda qo'llash, ekvivalentlik darajasini o'lchash hamda adekvatlikka erishish yo'llari o'rganildi. Natijalar bo'limida ushbu tahlil natijalari keltirilib, moliyaviy terminlarning tarjimada qanday

o'zgarishlarga uchrashi, lingvopragmatik moslik darajasi va terminlarning kommunikativ vazifasini saqlash strategiyalari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi.

Natijalar. Moliyaviy terminlarning lingvopragmatik yondashuv asosida tarjima qilinishini tahlil qilish jarayonida, ularning ekvivalentligi va pragmatik mosligi chuqur o'rganildi. Moliyaviy matnlar o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, ularda keltirilgan terminlar xalqaro iqtisodiy atamalar hisoblanadi. Shu boisdan, ularning tarjimasida ekvivalentlikni saqlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Yevropa Markaziy Banki (ECB) hisobotlari asosida o'rganilgan moliyaviy terminlar tarjimasini keltiriladi.

Jadval: Moliyaviy Terminlarning Lingvopragmatik Tarjimasini

			O'rtacha
			O'rtacha
			O'rtacha

Moliyaviy terminlar, asosan, xalqaro iqtisodiy hujjatlarda keng qo'llaniladi va ularning to'g'ri tarjima qilinishi muhim iqtisodiy mazmunni saqlab qoladi. "Assets" atamasi "Aktivlar" deb tarjima qilingan bo'lib, bu rasmiy ekvivalentlikning aniq ifodasi hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarda ushbu termin kompaniya aktivlarini ko'rsatadi va xalqaro iqtisodiy atamalar orasida keng tarqalgan. "Liabilities" atamasi esa "Majburiyatlar" deb tarjima qilinadi. Rasmiy ekvivalentlik saqlangan bo'lib, kompaniya qarzlari va majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq aks ettiradi. Ushbu termin xalqaro standartlarda o'zgarish talqiniga ega. "Net Profit" atamasi "Sof foyda" deb tarjima qilinadi va bu funksional ekvivalentlikka misol bo'ladi. O'zbek moliyaviy diskursida "sof foyda" tushunchasi keng qo'llaniladi, natijada matnning iqtisodiy ma'nosi to'liq yetkaziladi. "Balance Sheet" atamasi "Balans hisoboti" deb tarjima qilinadi. Bu yerda funksional ekvivalentlik saqlangan, chunki o'zbek tilida ham ushbu atama kompaniyaning moliyaviy holatini ifodalash uchun qo'llaniladi. "Investment" – "Investitsiya" tarzida tarjima qilinadi va bu funksional ekvivalentlikni ta'minlaydi. Investitsiya tushunchasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda keng

qo'llanilib, o'zbek tilida ham mazmunan aniq ifodalanadi. "Depreciation" – "Amortizatsiya" shaklida o'zbek tiliga o'giriladi. Bu termin iqtisodiy tushuncha sifatida aktivlarning qadrsizlanishini ifodalaydi. Tarjimada funksional ekvivalentlik qo'llanilib, mazmunan aniq va to'g'ri aks ettiriladi. "Capital Expenditure" – "Kapital xarajatlar" deb tarjima qilinadi. Ushbu termin moliyaviy hujjatlarda uzoq muddatli aktivlarga sarflanadigan mablag'larni ifodalaydi. Funksional ekvivalentlik orqali iqtisodiy tushuncha to'g'ri ifodalangan.

"Interest Rate" atamasi "Foiz stavkasi" deb tarjima qilinadi. Bu funksional ekvivalentlikning yorqin misoli bo'lib, bank va moliyaviy bitimlarda keng qo'llaniladi. Tarjimada pragmatik moslik to'liq ta'minlangan.

Muhokama. Moliyaviy terminlarning tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlikni ta'minlash iqtisodiy tushunchalarning to'g'ri va aniq ifodalanishi uchun muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy matnlar tarjimasida ikki asosiy yondashuv – rasmiy ekvivalentlik va funksional ekvivalentlik samarali qo'llaniladi. Rasmiy ekvivalentlik, asosan, xalqaro standartlarga mos keladigan iqtisodiy atamalar tarjimasida qo'llaniladi. Masalan, "Assets" – "Aktivlar", "Liabilities" – "Majburiyatlar", "Revenue" – "Daromad" kabi terminlar bevosita tarjima qilinib, terminologik aniq talqin saqlanadi. Ushbu yondashuv xalqaro moliyaviy hisobotlar va bank bitimlarida o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Biroq, ba'zi moliyaviy terminlar tarjimasida funksional ekvivalentlik qo'llash zarurati tug'iladi. Bu yondashuv, ayniqsa, o'zbek tilida bevosita ekvivalentga ega bo'lmagan terminlarni ifodalashda qo'l keladi. Masalan, "Net Profit" – "Sof foyda", "Balance Sheet" – "Balans hisoboti", "Depreciation" – "Amortizatsiya" kabi atamalar funksional ekvivalentlik orqali yanada tushunarli va maqsadga muvofiq tarjima qilinadi. Funksional ekvivalentlik tarjimonlarga pragmatik jihatdan to'g'ri mos keluvchi, madaniy va iqtisodiy kontekstda aniq ifodalangan tarjima variantini yaratish imkonini beradi.

Lingvopragmatik yondashuv, ayniqsa, xalqaro moliyaviy bitimlar va hisobotlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali terminlarning nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki iqtisodiy vazifasi ham hisobga olinadi. Tarjimada pragmatik moslikka erishish orqali xalqaro moliyaviy hujjatlarning to'g'ri talqin qilinishi ta'minlanadi, bu esa iqtisodiy va huquqiy jihatdan kelishmovchiliklarning oldini oladi. Moliyaviy terminologiyani tarjimasi faqatgina lug'aviy ekvivalentni topish bilan cheklanmaydi, balki pragmatik kontekst, madaniy tafovutlar va kommunikativ vazifani ham hisobga olish zarur. Shu sababli, lingvopragmatik yondashuv orqali tarjima jarayoni chuqur tahlil qilinadi, matnning iqtisodiy mazmuni to'liq saqlanadi va iqtisodiy hujjatlarning xalqaro darajada o'zaro tushunilishi ta'minlanadi.

Xulosa

Moliyaviy matnlarning tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlikni ta'minlash

nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rasmiy ekvivalentlik xalqaro moliyaviy standartlar va hisobotlarda terminologik aniq talqin uchun samarali bo'lsa, funksional ekvivalentlik iqtisodiy tushunchalarni pragmatik jihatdan moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Lingvopragmatik yondashuv moliyaviy matnlarning tarjimasida nafaqat lug'aviy ma'noni, balki kommunikativ vazifani ham saqlash imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlar, bank bitimlari va investitsion hujjatlarda pragmatik moslikning ta'minlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning aniq va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yondashuv asosida moliyaviy terminologiyani boshqa tillarga tarjimasida yuzaga keladigan lingvistik va pragmatik muammolarni yanada chuqurroq o'rganish zarur. Shu orqali, xalqaro iqtisodiy hamkorlik doirasida til to'siqlari minimal darajaga tushirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation* (3rd ed.). Routledge.
2. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Giles, H. (2010). *The Dynamics of Intergroup Communication*. Peter Lang Publishing.
4. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The Translator as Communicator*. Routledge.
5. Katan, D. (2004). *Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators*. St. Jerome Publishing.
6. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
7. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. Brill Archive.
8. Nord, C. (1997). *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. St. Jerome Publishing.
9. Reiss, K., & Vermeer, H. J. (1984). *Groundwork for a General Theory of Translation*. Routledge.
10. Shuttleworth, M., & Cowie, M. (2014). *Dictionary of Translation Studies*. Routledge.
11. Venuti, L. (2013). *The Translation Studies Reader* (3rd ed.). Routledge.
12. Zhang, W. (2015). *Pragmatic Translation: Theory and Practice*. Shanghai Foreign Language Education Press.
13. Jahon Banki (World Bank). (2022). *Annual Financial Report*. Retrieved from <https://worldbank.org>
14. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). (2023). *Global Financial Stability Report*. Retrieved from <https://imf.org>
15. Yevropa Markaziy Banki (ECB). (2022). *Financial Stability Review*. Retrieved from <https://ecb.europa.eu>